

## FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LISONIY TABIATI

*Shodiyabonu Malikova Abduvoris qizi*

*NamDU lingvistika –ingliz tili 2- kurs magistranti*

*Tel:+99833 137 00 01*

*“Frazalogik birliklarning lisoniy tabiati”*

**Kalit so'zlar:** Frazalogiya, tilshunoslik, lug'at, atama, frazalogik birikma, lingvistika.

**Annotatsiya:** ushbu maqola frazalogiya va frazalogik birliklarning kelib chiqishi tarixini yoritib berilishiga qaratilgan bo'lib, frazalogik birliklarning ikki til ya'ni ingliz va o'zbek tili rivojiga qo'shgan hissasi va uning mazmun mohiyatini ochib berilishiga alohida urg'u berilgan.

Bugungi kunda umumtilshunoslikda alohida soha sifatida shakllanib ulgurgan va o'zining salmoqli o'rniga ega bo'lgan frazeologiya bo'limining ham o'z shakllanish va taraqqiyot bosqichlari mavjud. Frazeologiya aslida– tilshunoslikning kichik sohasi bo'lib, fraza – ibora, logos – ta'limot degan ma'nolarni anglatadi. Frazeologiya atamasi asosan ikki ma'noda ishlatiladi:

1) tilning frazeologik tarkibini o'rganuvchi tilshunoslik sohasi;

2) shu tilning frazeologizmi majmui. Frazeologiya lug'atlarning nafaqat eng rang-barang, balki eng demokratik qatlami hamdir va bu qatlam asosan «jonli» nutq vositasida boyiydi. Frazeologiya dastlab adabiyotshunoslikda paydo bo'lgan. Ma'lum bir asarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilganda turg'un so'zlar bog'lanmasini aynan tarjima qilish mumkin bo'lmay qolgan. Bunda o'sha tillarda mavjud bo'lgan frazeologizmlar o'rganila boshlangan. Frazeologiya atamasi dunyo filologiyasida 1558-yilda ingliz adabiyotshunos olimi Neandr tomonidan birinchi marotaba qo'llanilgan<sup>1</sup>. U badiiy asarlarni tarjima qilar ekan, shu atamani ishlatishga majbur bo'lgan. Shu bilan bir qatorda esa, frazeologiya ilmining asoschisi shveytsariyalik olim Charl Ballidir degan malumotlar ham uchraydi. U o'zining «Frantsuz stilistikasi» (1909) nomli asarida so'z birlashmalari, ya'ni frazeologik birliklarni tadqiq etuvchi maxsus boblar kiritgan. Charl Balli frazeologiya atamasini fanga kiritgan bo'lsada, bu atama Amerika va G'arbiy Yevropa tilshunoslarining ishlarida o'z aksini topgan. Balli frazeologiyani stilistika tarkibiga kiritadi<sup>2</sup>. Yaqin davrgacha ingliz frazeologiyasi masalalari grammatika, stilistika, leksikografiya va til tarixi doirasida o'rganib

<sup>1</sup>Федуленкова Т.Н. Английская фразеология. – Архангельск, 2000.132с

<sup>2</sup>Кунин А.В. “Курс фразеологии современного английского языка”. – М.: 1986.-В.187.

kelingan. Barcha tillarda frazeologiya leksikologiyaning bir bo'lagi sifatida o'rganilardi. Tilshunoslikning rivojlanishi jarayonida frazeologiya tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida qabul qilindi va o'rganilib kelinmoqda. Frazeologiyani tilshunoslikning mustaqil bo'limi sifatida o'rganish masalasi atoqli rus tilshunosi Y.D.Polivanov tomonidan ilgari surildi.Uning ta'kidlashicha, leksika alohida so'zlarning ma'nosini, morfologiya so'zlarning shaklini, sintaksis esa so'z birikmalarining shaklini o'rganadi.Uning fikricha, ana shu til sohalari barobarida ma'lum bir so'z birikmalarining ma'nosini o'rganuvchi alohida sohaga ham ehtiyoj seziladi. Y.D.Polivanov frazeologiyaning tilshunoslikda mustahkam o'rin egallashiga ishonchi komil edi va shunday bo'ldi ham. Frazeologiyani tilshunoslikning mustahkam sohasi sifatida o'rganish masalasi rus olimi V.V.Vinogradov tomonidan ilgari surilgan.Vinogradovning buyuk xizmati shundaki, u frazeologik birikmalarni semantik jihatdan 3 guruhga ajratdi.

1. frazeologik chatishmalar (phraseological fusions).
2. frazeologik qo'shilmalar (phraseological units).
3. frazeologik birlashmalar (phraseological collocations or combinations).

Ammo uning xizmatlariga qaramay, frazeologiya leksikologiyaning bir bo'limi sifatida qolaverdi, chunki frazeologiya tilshunoslikning mustaqil bo'limi bo'la olishini isbotlovchi asosiy tushunchalar ishlab chiqilmagan edi.Shunday qilib, frazeologiyani tilshunoslikning bir bo'limi sifatida o'rganish davom etdi. Y.D.Polivanov va V.V.Vinogradovdan so'ng birinchi bo'lib frazeologiyani tilshunoslikning mustaqil bo'limi sifatida o'rganish masalasini ilgari surgan olim B.A.Larin edi. U frazeologiya sohasida yetarlicha ilmiy ishlar qilinmaganini ta'kidlab o'tdi.

A.V.Kuninning fikricha, frazeologiya leksikologiya bo'limi doirasidan chiqqan, uning ko'lamini va nufuzi ancha ortdi. Shunday qilib, hozirgi ko'pgina zamonaviy tillarda frazeologiya tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida o'rganilmoqda.Frazeologiya sohasida ko'plab bir-biriga teskari fikrlar bildirilgan bo'lsada, ilmiy ishlar qilindi.N.N.Amosova, A.V.Kunin, B.A.Larin, V.A.Arxangelskiy, V.V.Vinogradov, A.U.Smirnitskiy, S.S.Gorelik, I.A.Melchuk, I.I.Rezvin kabi tilshunoslarning bu sohaga qo'shgan hissalarini buyukdir.O'zbek tilshunosligida frazeologizmlarni o'rganish 1950 yillarda boshlandi.Bu sohada Y.Pinxasov, M.Hasanov, I.Qo'chqortoyev, Sh.Raxmatullayev, A.Mamatov kabi taniqli tilshunoslar ilmiy tadqiqot olib bordilar.O'zbek frazeologiyasi sohasida tilshunos olim Sh.Raxmatullayev qo'shgan hissasi ulkandir.

Bu olim o'zbek iboralarining grammatik xususiyatlarini keng tadqiq qildi. U o'zbek frazeologik birliklarini lug'aviy birlik sifatida o'rganishni boshlab berdi.uning ilmiy tadqiqotlari va bu ilmiy faoliyatning mevasi bo'lgan «Frazeologik birliklarning asosiy ma'no turlari» (1955), «O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari» (1966),

«Nutqimiz ko'rki» (1970), «O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati» (1978) kabi qator kitoblari o'zbek tilshunosligida muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

O'zbek frazeologiyasining xuddi ingliz frazeologiyasi kabi hajmi, o'rganish obyekti masalasi atrofida hali ham munozara bo'lib turganiga qaramay olimlar frazeologik boyliklarni turli nuqtalardan yondashib o'rganishni davom ettirmoqda. Ikki yoki undan ortiq so'zdan tarkib topgan va yaxlit bir ma'no ifodalaydigan, grammatik va semantic jihatdan bo'linmaydigan va odatda so'z ekvivalenti bo'lgan til birligi – frazeologik birlik yoki frazeologizm deyiladi<sup>3</sup>.

Ingliz tilidagi ba'zi frazeologizmlar:

*-Red tape, in a brown study, Hobson's choice, to kick the bucket, to leave somebody in lurch, to set one's cap at somebody, to stand to one's guns, to catch at a straw.*

O'zbek tilidagi ba'zi frazeologizmlar: *Qo'y og'zidan cho'p olmagan, og'zi qulog'ida, sirkasi suv ko'tarmaydi, o'takasi yorilmoq, sichqonning ini ming tanga, kovushini tog'rilab qo'ymoq, do'ppisi yarimta, yuragiga qil sig'maydi.*

Ma'lumki, til jamiyat a'zolari o'rtasida aloqa-aralashuv vazifasini, insonning fikrlash va fikr mahsulini og'zaki hamda yozma ravishda bayon qila olish, o'z ichki kechinmalarini ifodalash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ona tili ta'limi oldiga qo'yilgan bu ijtimoiy vazifa o'quvchilarni fikrlashga, o'zgarlar fikrini anglashga va shu fikr mahsulini savodli bayon qila olishga, ya'ni kommunikativ savodxonlikni rivojlantirishga o'rgatishdan iborat.

Shu bilan birgalikda, til fanining iboralarni o'rganadigan bo'limi frazeologiya deb ataladi. Iboralar lingvistik terminologiya tili bilan aytsak, frazeologizmlardir. Frazeologizm qadimgi grek tilidan olingan bo'lib, frasis-ibora, logos-tushuncha, ta'limot demakdir. Frazeologizmni tilning leksik-semantik va sintaktik sathlaridan farq qiluvchi alohida sathga xos birlik deyish frazeologik normani ham adabiy tilning boshqa normalari qatorida hisobga olishni talab etadi. Shuning uchun ham izohli lug'atlarda frazeologizmlarni ham qayd etish butun dunyo tilshunosligida tan olingan amaliyotdir.

Frazeologiya yunoncha *phrasis*-so'zidan olingan bo'lib *ibora, nutq oboroti, bilim, tushuncha, logos-fan, ta'limot* ma'nolarini anglatadi. Frazeologiya ikki turga bo'linadi:

1. Biror tilga xos barqaror so'z birikma-iboralar majmui;
2. Tilshunoslikning biror tilga xos barqaror so'z birikmalari va iboralarni o'rganuvchi bo'limi.

Frazeologizmlarning paydo bo'lishi inson tafakkuri bilan tilning leksik imkoniyatlari o'rtasidagi nomutanosibliklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

<sup>3</sup>Mamatov A. E. O'zbek tilida frazeologizmlarning shakllanishi masalalari. – T.: O'TA. 2001. 3- son.-B.56

Frazeologiya – til durdonasidir. Bunda xalqning tarixi, turmushi va madaniyatining o‘ziga xosliklari aks etadi. Frazeologizmlarda xalqning yorqin milliy xususiyatlari mujassam bo‘ladi. Ingliz frazeologiyasi boy va uning tarixi uzoq. Bunda sof ingliz frazeologizmlar qatorida chetdan qabul qilingan, ya’ni internatsional frazeologizmlar ham talaygina.

Frazeologizmlar chuqur va boy ma’noga ega bo‘lishi bilan birqatorda nutqqa alohida ko‘rk, tarovat bag‘ishlaydi, ammo uni faqatgina tilga «bezak» yoki, aksincha, «ortiqcha» deb eskirgan qarash bilan qarab bo‘lmaydi. Dunyoda iboralarsiz tilning o‘zi yo‘q, xususan ingliz frazeologiyasi ham juda boy va o‘zining ko‘p asrlig tarixiga ega.

Frazeologiya – o‘ta murakkab hodisa va uni o‘rganish o‘ziga xos uslubni taqozo etadi, shuningdek, boshqa bir qator leksikologiya, grammatika, stilistika, fonetika, tarix, mantiq va mamlakatshunoslik kabi fanlar ma’lumotlariga murojaat qilgan holda o‘rganishni talab etadi.

Frazeologiyaning ba’zi muamolari bo‘yicha mutaxassislarning fikrlari turlicha. Binobarin, frazeologiya sohasida ilmiy ish olib boruvchi tilshunoslarning oldida turgan vazifalardan biri – mavjud fikrlarni umumlashtirib, ularni birlashtirib yagona to‘g‘ri fikrni izlab topishdan iboratdir.

Ingliz va Amerika lingvistikasida frazeologiya nazariyasiga oid ilmiy ishlar salmog‘i ko‘p emas. Mavjud tadqiqotlarda<sup>4</sup> ham frazeologizmlarni ajratishning ilmiy isbotlangan mezonlari, frazeologik birikma va so‘z nisbati, frazeologizmlarning tuzilishi, ularning variantliligi, tarkiblanishi va umuman frazeologizmlarni o‘rganish uslubi kabi fundamental masalalarga yetarli o‘rin berilmagan.

Sharl Balli “phraseologie”<sup>5</sup> atamasini «stilistikaning so‘z birikmalarini o‘rganuvchi bo‘limi» ma’nosida kiritdi, ammo mazkur atama G‘arbiy Yevropa va amerikalik lingvistlarning asarlarida boshqa uch ma’nolarda o‘z aksini topdi<sup>6</sup>:

1. so‘z tanlash, ifoda shakli, ta’riflash (formulirovka);
2. til, bo‘g‘in, uslub;
3. ifoda, so‘z birikmasi.

Xususan, phraseology so‘zining ma’nosini ingliz va amerikancha lug‘atlardagi ifodasi orqali ko‘rishimiz mumkin.<sup>7</sup>

<sup>4</sup> Смит Л. П. Фраzeология английского языка. Пер. с англ. А. Р. Игнатъева. – М. , 1959.

<sup>5</sup> Bally, CA. *Precis de stylistique*. – Geneve, 1905. Bally, Ch. *Traite de stylistique francaise*. – Heidelberg, 1909. Brewer’s *Dictionary of Phrase and Fable*. – London, 1971.

<sup>6</sup> Choice of words; wording (Hornby A.S. *The Oxford Advanced Learner’s Dictionary of Current English*. London, 1974).

<sup>7</sup> The choice or arrangement of words and phrases in the expression of ideas; manner or style of expression; the particular form of speech or diction which characterises a writer, literary production, language, etc. (*The Oxford English Dictionary*. Oxford, 1933, Vol. VII).

Angliya va AQSHda frazeologiya masalalarida (maqol, idiomalar) asosan semantika va grammatikaga oid tadqiqotlarda, shuningdek, frazeologik lugʻatlarning soʻz boshida uchraydi. Soʻz birikmalarining idiomatik tuzilishiga oid bir qator maqolalar mavjud. Maqollar borasida esa aksincha, ularga bagʻishlangan ilmiy ishlar talaygina. Bu sohada hatto maxsus jurnal «Proverbium» (1965 – 1975 yy.) nashr etilgan. Ushbu jurnal chop etilishining sababi, paremiologiyaning (maqollarni oʻrganuvchi soha) folklyor – xalq ogʻzaki ijodining tarkibiy qismi nuqtai nazaridan qaralganligidadir.

Frazeologiyaga mustaqil fan, fan sohasi sifatida qarashni birinchi boʻlib mashhur rus tilshunosi Ye. D. Polivanov olgʻa surdi va bu masalaga koʻp martalab qaytdi<sup>8</sup>. Uning taʼkidlashicha, leksika – soʻzlarning oʻziga xos lugʻaviy maʼnosini oʻrganadi, morfologiya soʻzlarning shakliy tuzilishini, sintaksis esa soʻz birikmalarining shakliy maʼnosini oʻrganadi.<sup>9</sup>

«Shunday ekan, alohida boʻlimga ehtiyoj tugʻilib, sintaksisga yaqin, lekin ayni paytda soʻz birikmalarining umumiy maʼnosini emas, balki alohida birikmalarning oʻziga xos maʼnosini oʻrganuvchi, huddi leksika alohida soʻzning maʼnosini oʻrgangani kabi boʻlim yaratish zarur. Tilshunoslikning bu boʻlimini men frazeologiya deb atayman. Ushbu maʼnoni anglatuvchi boshqa atama ham taklif etish mumkin - «idiomatika»<sup>10</sup>.

Ye.D.Polivanovning aytishicha, kelajak lingvistik adabiyotida boshqa bir qator masalalar oʻrtasida bizning fanimizga yengil-elpi yondashishdan holi boʻlgach, bu boʻlim fanda barqaror va jiddiy oʻrniga ega boʻladi.<sup>11</sup>

Ye.D.Polivanovdan soʻng ushbu masalaga murojaat etgan olim B.A.Larin boʻldi. B.A.Larin, frazeologiya tadqiqot obʼekti sifatida hali oʻzining «yashirin rivojlanish» darajasida ekanligi va bu borada jiddiy izlanishlar olib borilmagani, shuningdek, uni leksikografiya, stilistika va sintaksis materiallaridan ajratgan holda oʻrganish talab etilayotganini aytadi.

Shuningdek frazeologiyaning tilshunoslikning bir boʻlimi sifatida shakllanishda yana bir rus tilshunosi V.V. Vinogradovning izlanishlari ham yetakchi rol oʻynadi.

Hozirgi kunda frazeologiya leksikologiyaning bir boʻlimi darajasidan oʻzining tadqiqot obʼekti va uslubiga ega boʻlgan tilshunoslikning mustaqil fanlaridan biriga aylandi.

<sup>8</sup>ПоливановЕ.Д. Русскийязыксегодняшнегодня. – М. –Л., 1928 (б). – Кн. 4. –С.144.

<sup>9</sup> Востоков А.Х. Русская грамматика по начертанию его же сокращенной грамматики. – СПб. – 1835. – С. 219.

<sup>10</sup> Поливанов Е.Д. Русский язык сегодняшнего дня. – М. –Л., 1928 (б). – Кн. 4. –С.144.

<sup>11</sup> Поливанов Е.Д. Введение в языкознания для востоковедных вузов. –Л., 1928. –С. 61.

Frazeologiya fani tarix, adabiyotshunoslik, lisoniy mamlakatshunoslik va tilshunoslikning bir qator boshqa fanlari leksikologiya, semantika, grammatika, fonetika, stilistika, til tarixi, etimologiya, matn tilshunosligi va umumiy tilshunoslik kabi fanlar bilan bog‘liq.

Frazeologiya so‘zlardan tarkib topadi, so‘z esa leksikologiya o‘rganadigan asosiy ob‘ekt hisoblanadi. Leksikologiya manbalariga asoslanib frazeologiya komponentlarining tabiatini hamda ularning lisoniy darajasini aniqlash mumkin. Semantikada ishlab chiqilgan so‘zning lug‘aviy ma‘nosi nazariyasi frazeologiyaning lisoniy xususiyatini aniqlashda va frazeologiya tarkibidagi ma‘nosini farqlashga yordam beradi.

Frazeologiya tarkibidagi so‘z hamma vaqt ham o‘zining morfologik xususiyatlarini yo‘qotib qo‘ymaydi, aynan morfologiya bu sohada nima yo‘qolib - saqlanib qolganini aniqlashda yordam beradi.

Frazeologiya tarkibiga turli xil tuzilishga ega bo‘lgan so‘z va so‘z birikmalari, shu jumladan iborali gaplar kiradi, aynan shu iboralarning grammatik xususiyatlarini o‘rganish uchun bizga sintaksis borasidagi bilimlar qo‘l keladi. Frazeologiya tarkibidagi so‘z muayyan fonetik qiyofaga ega bo‘ladi, ammo rivojlanish jarayonida bu qiyofa o‘zgarishi mumkin. Mana shu holatlarni aniqlash uchun esa, albatta, fonetika murojaat qilinadi frazeologizmlarning, ayniqsa, idiomatizm va idiofrazeomatizmlarning stilistik quvvati kuchli, ularning ma‘nosida konnotativ (lug‘aviy) aspekt yuqori bo‘ladi. Frazeologiyaning stilistik xususiyatlarini o‘rganuvchi frazeologik stilistika, albatta, leksik stilistikaga suyanadi. Til tarixi va etimologiyaga oid materiallar frazeologizmlarni etimologik tahlil qilishda yordam beradi. Frazeologiyaning nutqda aktuallik darajasini tahlil qilishda matn tilshunosligi nazariyasiga tayanish mumkin.

Frazeologiyani o‘rganishning umumiy tizimini ishlab chiqishda soha mutaxassisi (frazeolog) umumiy tilshunoslik tajribasidan foydalanadi. O‘z navbatida frazeologiya ob‘ekti shunday murakkab va o‘ziga xoski, uni o‘rganish jarayonida yuqorida sanab o‘tilgan tilshunoslik fanlari rivojlanishiga yangi manbalar yaratadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

Федуленкова Т.Н. Английская фразеология. – Архангельск, 2000.132с

Кунин А.В. “Курс фразеологии современного английского языка”. – М.: 1986.-В.187

Norrick N.R. How proverbs mean: semantic studies in English proverbs / Norrick N.R. - Berlin; New York: Mouton, 1985. - 213 p.;

Bengt Altenberg. On the phraseology of spoken English // The evidence of recurrent word-combinations // Phrasology. A.P.Cowie. - Oxford: Clarendon Press, 1998. - P. 101-121.;

Alvarez de la Granja, Maria (ed.). Fixed expressions in cross-linguistic perspective // a multilingual and multidisciplinary approach. - Hamburg: Verlag Dr. Kovac, 2008. - 382 p.;

Glaser, Rosemarie. The Stylistic potential of phraselological units in the light of genre analysis // Phrasology. Ed. A.P.Cowie. -Oxford: Clarendon Press, 1998..

Раҳматуллаев Ш. Узбекфразеологиясинингбаъзимасалалари: Филол. фан. докт. дисс. автореф. -Тошкент, 1966. - 46 б; БердиёровХ., Йўлдошев Б. Узбекфразеологиясигадоирбиблиографиккўрсаткич. - Самарқанд, 1977. - 21-26; 38 б;

Пинхасов. Я.Д. Ҳозирги ўзбек адабийтили. Лесикологиявафразеология. - Тошкент: Уқитувчи, 1969. - Б. 55-65.;

УмарходжаевМ.И.Принципысоставлениямногоязычногофразеологическогог ословаря: Автореф. дисс.канд. филол.наук. - Москва, 1972. - 27 с.;

Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологикбирликларнингфункционал-услубийхусусиятлари: Филол. фан. докт. дисс. - Тошкент, 1993. - 297 с.;

Маматов А.Э. Ҳозирги замон ўзбек тилидалексик вафразеологикнормамуаммолари. - Тошкент: Фан, 1991. - 276 б.;

Маматова. Узбектилифразеологизмларнингшаклланиши масалалари: Филол. фан. докт. дисс. - Тошкент, 1999. - 312 б.